



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “31” may

BUYRUQ № 120

Toshkent sh.

**“Ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha
uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 17- oktabrdagi “Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida 36- sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov